O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2022 - yil 27 - iyun 356-8-117-Q/22 Termiz tuman hokimligi

Termiz tumanining qishloq aholi punktlari hamda ijtimoiy soha ob’ektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflarini belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilarga suv ta’minotiva oqova suvni chiqarish xizmatlari ko‘rsatishqoidalari”ning 118-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 1-ilovaga muvofiq, qishloq hududidagi ijtimoiy soha ob’ektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari e’lon qilinadigan rasmiy manbalarda (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy nashrlari) rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

3. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari SH.Raxmonqulov zimmasiga yuklansin.

Termiz tuman hokimi **Urinov.SH.B**

Termiz tuman hokimining
2022 yil 27 iyundagi
356-8-117-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish

T A R I F L A R I

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo‘lgan o‘rtacha masofasi (km)	QFY soni	Hudud bo‘yicha o‘rtacha tarif		
				so‘m/ tn-km	so‘m/tn	so‘m/ litr
1.	Ayritom MFY	17	1	995	8457	8
2.	Xalqobod MFY	13	1			
3.	Uchqizil MFY	7	1			
4.	Yangiobod MFY	10	1			
	Jami	**47**	4			

Termiz tuman hokimining
2022 yil 27 iyundagi
356-8-117-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Tumanning qishloq hududidagi ijtimoiy soha ob’ektlariga ichimlik suvini maxsus
T A R I F L A R I
QQSsiz

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo‘lgan o‘rtacha masofasi (km)	Ijtimoiy muassasa soni	Hudud bo‘yicha o‘rtacha tarif		
				so‘m/tn-km	so‘m/tn	so‘m/ litr
1.	Ayritom MFY	17	2	995	8457	8
2.	Xalqobod MFY	13	1			
3.	Uchqizil MFY	7	2			
4.	Yangiobod MFY	10	1			
	Jami	**54**	**4**			